I.Qaxarova

Termiz davlat universiteti O'zbek

filologiyasi fakulteti Amaliy filologiya

yo'nalishi 1-kurs talabasi

LUG'ATLARNING ETIMALOGIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek lug'atlarining kelib chiqish tarixi ,lug'at chilik bilan bog'liq bo'lgan muammoli holatlar va lug'atlarning imkoniyatlari yoritiladi.

Abstrackt: In this article the historyu of the origin of Uzbek lexsicography problematic stuations related to lexsicography and its possibili ties are cvered

Аннотатсия: В данной статы авщаетса история возниковение узбекс кой лексикографий проблемине ситуатдие связаные с лексикографий и возмотностяли.

Tayanch so'zlar: Mahmud Qoshg'ariy , "Devon- u lug'at at turk" , A.K.Borovkov, P.N.Rozer, Abushqa, Sangloh,Teraurus , Idiografik ,Ensiklopedik lug'atlar.

Lug'atlarning kelib chiqish tarixi qadimgi davlarga borib taqaladi.Jumladan Xl asrda ijod qilgan Mahmud Koshg'ariyning va uning "Devon - u lug'at at turk asarida aynan mana shu jarayonni ko'rishimiz mumkin. Mahmud Koshg'ariyning " Devon- u lug'at at turk" asarida o'zi tuzgan dunyo xaritasida (dunyoning doira shaklidagi tasvirini ilova qiladi.)Xaritada mamlakat ,

qishloq , tog' dengiz kabi nomlar yozilgan.Xaritada berilmay qolgan bir qancha so'zlar va nolar mant oxirida izohlanadi.

Bu asar lug'atshunoslikka oid bo'lgan dastlabki asar hisoblanadi.

Bunda turkiy tildagi so'zlar arab tilida ifodalanadi va alifbo tartibida beriladi."Devon-u lug'at at turk"da qabila va urug' turlariga oid lingvistik malumotlar ancha batafsil berigan. Bunda har bir so'zning ma'nolar(polisemiya , omonim , sinonim, antonim vea arxaik)so'zlar juda juqur tahlil qilinadi.

" Abushqa" izohli lug'ati XVI asrda Alisher Navoiyning asarlarida foydalanish uchun Turkiyada yaratilgan.Muallifi nomalum, Navoiy zamondoshlarining asarlarida ham ayrim misollar keltiriladi. "Abushqa" lug'ati abushqa so'zining izohi bilan boshlanganligi sababli shu nom bilan mashhur. Bu so'z eski o'zbek tilida "keksa" "qari", "nuroniy",ma'nolarida qo'llaniladi .XV asrda hirotlik Imoniy

tomonidan Navoiy asarlari uchun tuzulgan.


O'zbekcha- forscha "Badoe-ul lug'at" asarida abushqa lug'atidan foydalanilgan. "Abushqa" lug'atini dastavval vengiriyalik sharqshunos olim G.Vanberi vengar tilid chop ettirgan. Alisher Navoiy asarlari bo'yicha yozilgan eng katta lug'at "Sangloh" dir. Bu lug'atning muallifi turkiy xalqlardan bo'lgan astrabotlik Mirza Mahdixon edi. Lug'at tuzishdan maqsad , shoirlar asarlarida uchraydigan qiyin so'zlarning ma'nolarini forsiyzabon xalqlarga ochib berish edi.Shuning uchun bu lug'atni "Sangloh" , "toshloq" "toshli yer" deb atashadi. Bu lug'at asosan 1759-1760 -yillarda yozib tugatilgan. Hozircha lug'atning uch nusxasi aniqlangan.

"Sangloh" lug'atining boshqa mumtoz lug'atlardan farqi shuki,bu lug'atda birinchi marta nasriy asarlardan ham misollar keltirildi.

Jumladan: Alisher Navoiy asarlarida "MANGISH" so'zi - "qadam tashlash " ,"yurish " ma'nosini bergan. "Sangloh" lug'ati boshqa lug'atlardan , lug'at tuzish tamoyillarining ancha murakkabligi bilan ajralib turadi. Buyuk yevropalik tilshunos olim P.N .Rojer lug'at haqida shunday fikrlarni keltirib o'tadi.

"Bizning tasavurimiz qanchalar jonli bo'lmasin ,his -tuyg'ularimizbizni qamrab olmasin, biz ko'pincha o'z fikrlarimizni aniq ifodaetish uchun yetarli so'zlarga ega bo'lmaydigan vaziyatlarga tushib qolamiz.Faqatgina kerakli so'z bizning xotiramizdan qochadi.

Biz juda umumiy , juda aniq so'zlarni bajarishga majbur bo'lamiz"Ijodkor takidlaganidek qachon biz bu holatga tushamiz , qachonki so'z boyligimiz lug'at boyligimiz yetarli darajada bo'lmasa shu boisdan lug'at boyligimizni oshirishimiz kerak.



Ayni shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda biz lug'atlarning har bir turiga ehtiyoj sezamiz shu jumladan "Tezaurus" lug'atlarga ham. Bu lug'at muayyan tildagi so'zlarni qamrab oladigan ularning matnda qo'llanish holatlarini to'la -to'kisaks ettiradigan lug'at."Tezaurus" yunoncha " xazina " , "boylik"degan ma'noni beradi. Jonli tilning lug'at tarkibi doimo o'zgarib turishi sababli tezaurus faqat o'lik tillar materiallari asosida yoki oldindan belgilab olingan yozma yodgorlik uchuntuzulishi mumkin .Muayyan yozuv yodgorliklaridan leksikani yoppasiga terib olishga asoslangan lug'atlar shunday lug'atlar

hisoblanadi. Turkiyshunoslikda E.I.Fozilov , A.Borovkov , A.Najiblarning XIIV - XIV asrlarda turkiy yozma yodgorliklar asosida tuzilgan lug'atlari glossariy ham tezaurus belgilariga ega.

Shu qatorda ijodkorlarning ayrim asarlari yoki prinspi asosida tuzilgan lug'atlar ham "tezaurus " lug'atlar bo'la oladi.

Aynan barcha soha ,ilm-fan , texnika , dialektlar bo'yicha kerakli va zarur so'zlarni qamrab oluvchi lug'at bu ,o'zbek tilining besh tomli izohli lug'atidir. Uning o'zini yaratilish tarixi mavjud.

O'zbek tilining lug'at tarkibida yuz bergan jiddiy o'zgarishlar munosabati bilan davr talabiga javob beradigan izohli lug'at yaratish zarurati kelib chiqdi .

Akademik A.Hojiyev rahbarligida O'zbek tili ,adabiyoti va folklori institutining bir guruh lug'atshunoslari tomonidan 2006- 2008 -yillarda besh jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati " yaratilgan va nashr ettirilgan. Lug'atda sakson mingga yaqin o'zbek

adabiy tilida keng iste'molda bo'lgan so'z va so'z birikmalar fan,san'at , madaniyat va texnika sohalariga oid terminlar , shevalardaqo'llaniladigan so'zlar , tarixiy atamalar jamlangan .2020- yilda ushbu izohli lug'at mutaxasislar va keng foydalanuvchilar , o'quvchilar ommasining talab va ehtiyojilaridan kelib chiqib O'zFA Adabiyot va folklor institutining bir guruh olimlari qayta ishlangandan so'ng Abduvahob Madvaliyev tahriri ostida tuzatilgan holda 3 ming nusxada qayta nashr etildi.

Lug'atlar qadimgi boy tariximizdan xabar beruvchi eng qimmatli vositadir.

Yurtimizda ilm -fan va boshqa sohalar bo'yicha jadal rivojlanishlar olib borilmoqda. Lekin hech biri lug'atlarning o'zgarishiga teng kela olmaydi.

Biz har kun so'zlashayotgan leksemalarni o'rganish , tahlili qilish va ularning ma'no tomoni , ijobiy ,salbiy tomonlargs ajratish bilan leksikografiya shug'ullanadi. Integrallashuv natijasida chetdan kirib kelayotgan so'zlarni muqobilini topish bilan ham bu soha shug'ullanadi.

Insonning so'z boyligi , qaysi o'rindan qanday so'zlash va leksemalarni o'z o'rnida qo'llashda ham lug'atga ehtiyoj sezadi.

Shu boisdan lug'atlarni o'rganish , tatbiq etish biz so'zdan foydalanuvchilarning vazifamiz hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT :

1.Mahmud Qoshg'ariy . Devonu lug'at-at turk. 6-bet

2.H.Botirov "Javohir xazinalari" - :T "G'afur G'ulom", 1989. 33-bet

3.A.Omonturdiyev , O'.Xolyorov , "Zamonaviy o'zbek leksikografiyasi" : Tahlil va tadqiq.Termiz .28-bet

4.M.Abdurahimov o'zbekcha- ruscha lug'ati . T. O'qituvchi 1986. 216-bet

5.B.Muxtorovna , D.O'ktamovna "Yosh tadqiqotchi" -2022-.T.1

6.A.Hojiyev . Tilshunoslik termini T:UzME 2002.-B.105